

OLIV TA'LIM XIZMATLARI KO'LAMLARI RIVOJLANISHI VA SAMARADORLIGINING O'ZIGA XOS KO'RSATKICHLARI

Levakov Izzatulla Nematillayevich

Namangan muhandislik-qurilish instituti, mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8369006>

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim sohasidagi muassasalarda ta'lim xizmatlari ko'lamlari rivojlanishi va samaradorligining o'ziga xos ko'rsatkichlarini aniqlash, ularga mos tavsiyalarni tayyorlab, amaliyotga tadbiiq etishdan iborat.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, mehnat bozori, ta'lim xizmatlari, xizmat ko'rsatish, Xizmat sifati Oliy ta'lim xususiyatlari, strategik rejalashtirish, samaradorlik, sifat.

Oliy ta'lim xizmatlari va mehnat bozorini samarali rivojlanishi oliy ta'lim muassasalari tomonidan tayyorlanadigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash bilan bog'liq. Chunki, bozor munosabatlari sharoitida erkin raqobatga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, xizmat ko'rsatish sohalarida innovatsion yangiliklarni kiritish asosida mamlakatni jahon xo'jaligi bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash va respublikamizni ilmiy salohiyatidan foydalanish darajasi oshadi.

Ta'lim tizimining asosiy mahsuloti - ta'lim xizmatlarining o'ziga xosligi bilan bog'liq. Ta'lim xizmatlari shaxsiy (yakuniy iste'molchi), guruh (korxonalar-ish beruvchi) va jamoat (davlat) ehtiyojlarini qondiradi¹. Shundan kelib chiqib, rossiyalik marketolog olim V.B. Banslova ushbu uchta jihatni hisobga olgan holda ta'lim xizmatining ta'rifini keltirib o'tgan:

1) shaxs (fuqaro) nuqtai nazaridan ta'lim xizmati bu iste'molchiga kasb egallashida belgilangan shakl va dastur bo'yicha, iste'molchi bilan yaqin aloqada amalga oshiriladigan o'zini o'zi rivojlantirish va shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan umumiy ta'lim va kasbiy xarakterdagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayonidir.

2) muassasa nuqtai nazaridan ta'lim xizmati - bu doimiy o'zgaruvchan bozor sharoitida ishlashni ta'minlash, raqobatbardoshlikni saqlash va rivojlanish uchun zarur bo'lgan o'quv jarayonidir.

3) davlat ta'lim xizmatining pozitsiyasi jamiyatning umumiy shaxsiy va intellektual salohiyatini ommaviy ishlab chiqarishni ta'minlaydigan jarayondir².

OTMda ta'lim xizmatlarining beshta asosiy xususiyatga ajratishimiz mumkin:

- nomoddiylik;
- ajralmaslik;
- sifatning o'zgaruvchanligi;
- mo'rtlik (tez buziluvchanlik);

¹Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 22 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги тизимидаги умумий ўрта таълим муассасаларида пуллик таълим хизматларини кўрсатиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида” ги 343-сон қарори– Тошкент. – 2019 йил 22 апрель. Манба: <https://lex.uz>.

²Ўзбекистон Республикаси Президентининг “ОТМларининг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш ва юқори малакали мутахассислар тайёрлаш сифатини “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2019 yil 6/2019 (№ 00044) <http://iqtisodiyot.tsue.uz> 143 тубдан яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 1533-сонли Қарори. – Тошкент. – 2011 йил 20 май. Манба: <http://press-servis.uz>.

- egalik huquqining yo'qligidir ³.

Xizmatning nomoddiyligi, ya'ni sotib olishdan oldin uni ko'rish, tatib ko'rish, tegish, eshitish yoki hidlab bo'lmashligini bildiradi. Xizmatni sotib olishdan oldin uning aniq xususiyatlari yo'qligi sababli, sotib olishning noaniqlik darajasi oshadi. Uni kamaytirish uchun xaridorlar xizmat sifatining "signallari"ni izlaydilar. Ta'lim sohasida bular: ta'lim standartlari, o'quv rejalari va dasturlari, xizmatlar ko'rsatish bo'lmashligini anglatadi. Sinfda o'quvchilar bo'lmasa, o'qituvchi xizmat ko'rsata olmaydi. Iste'molchi xizmat ishlab chiqarishda doimo ishtirok etishi sababli, yetkazib beruvchi (o'qituvchi) bilan o'zaro munosabat xizmat ko'rsatish marketingining alohida jihati hisoblanadi. O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro tushunish qobiliyati ularning faoliyatiga ta'sir qiladi. Xizmatlarning ajralmasligining ikkinchi o'ziga xos xususiyati - boshqa iste'molchilarning mavjudligi va ularni ko'rsatish jarayonida ishtirok etishi. Xizmat bir kishi tomonidan iste'mol qilinganda auditoriyada boshqa ta'lim oluvchilar ham mavjud bo'ladi. Ularning xulq-atvori shaxslarning xizmatdan qoniqish darajasini belgilaydi. Shu sababli, xizmat ko'rsatuvchining vazifasi ta'lim xizmatlarining ayrim iste'molchilari boshqa iste'molchilar tomonidan sifatli ta'lim olishiga to'sqinlik qilmasligini ta'minlashdan iborat.

Xizmat sifatining o'zgaruvchanligi uning sifati kim, qachon, qaerda va qanday taqdim etilishiga qarab juda katta farq qilishi mumkinligini anglatadi. Xizmatlar, ayniqsa, ta'lim sifatini nazorat qilish juda murakkab. Bir o'qituvchi tomonidan ko'rsatiladigan xizmat uning jismoniy holati va o'quvchilar bilan muloqot qilishdagi kayfiyatiga qarab sifat jihatidan farq qiladi⁴. Ta'lim muassasasi ma'muriyati o'quvchilarning o'quv jarayoni sifatidan qoniqish darajasini monitoring qilish va so'rovnoma orqali o'tkazish orqali doimiy ravishda nazorat qilib borishi kerak bo'ladi. Xizmatning mo'rtligi uni keyinchalik sotish yoki foydalanish uchun saqlash mumkin emasligini anglatadi. Mo'rtlik, agar unga talab yetarlicha barqaror bo'lsa, unchalik muammo emas. Biroq, agar talab turli xil tebranishlarga duchor bo'lsa, ta'lim muassasasi muammolarga duch keladi (masalan, o'qituvchilar soni muammosi).

O'quv ma'lumotlari tarqatma materiallar, kitoblar, disk, flesh-elektron qurilmalarda tayyorlanishi va saqlanishi ta'lim xizmatlariga xosdir. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, bilim tezda eskiradi⁵.

Faqat ta'lim xizmatlariga xos bo'lgan xususiyatlar quyidagilardir:

- xizmatlar ko'rsatish samaradorligini aniqlashning bajarilish muddatining nisbiyligi;
- xizmatlar ko'rsatishning mavsumiyligi yoki davriyligi;
- xizmatlarning ularni ko'rsatish joyiga va talabalarning yashash joyiga bog'liqligi;
- ta'lim xizmatlariga ehtiyojning qondirilishi bilan talab ortib boradi.

³Алмакучуков К.М. Технологии управления маркетингом в вузе // Высшее образование Кыргызской Республики. – 2008. – 2/12. – с.44-50.

⁴Ахунова Г. Ўзбекистонда таълим хизматлари маркетинги муаммолари: Монография. – Тошкент. – 2005. – 244 б.

⁵Назарова Д. Таълим хизматлари маркетингида ахборотни бошқариш // Жамият ва бошқарув. – 2010. – 3. – 65-67-б.

Bozor iqtisodiyotining rivojlanishida va ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sub'ektlarini qanday mulkchilik shakllariga asoslanishidan qat'iy nazar erkin raqobat asosida har bir mamlakatni jahon bozorida raqobatdosh bo'lishini ta'minlashda intellektual jarayonni rivojlantirish asosiy muammoga aylanadi. Bu esa o'z navbatida, bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini intellektual darajalarini oshirishni ta'minlash uchun bozor talablariga asoslangan holda oliy ma'lumotli malakali mutaxassislarni tayyorlash dolzarb hisoblanadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun javob bera oladigan intellektual oliy malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashda oliy ta'lim muassasalarida malakali professor va o'qituvchilar tomonidan berilgan bilimlar ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan jahon xo'jaligi bozorida raqobatdoshligini ta'minlaydi. Demak, milliy iqtisodiyotni innovatsiyalashtirish asosida mamlakatimizni ilg'or mamlakatlar qatoriga olib chiqish mumkin. Buni eng rivojlangan AQSh, Yaponiya, Fransiya, Angliya, Yevropa ittifoqi davlatlari misolida ko'rish mumkin.

Mamlakatimizdagi oliy ta'lim tizimi o'zaro ta'sir qiluvchi tarkibiy qismlarning kombinatsiyasi hisoblanadi va ularda turli daraja va yo'nalishdagi uzluksiz ta'lim dasturlari va davlat ta'lim standartlari, tashkiliy-huquqiy shakllari, ta'lim muassasalari tarmoqlari, ta'lim xizmat ko'rsatishi organlari va ularga qarashli muassasalar ishtirok etadi.

Hozirgi vaqtda oliy ta'limda xizmat ko'rsatish tizimining eng muhim muammolari quyidagilardan iborat:

- ta'lim sohasida bozor mexanizmining ruxsat etilgan chegaralarini aniqlash;
- ta'lim sohasida davlat ro'lining nisbatini aniqlashtirish, tartibga solish va bozor mexanizmlari ro'lini oshirish;
- oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning konseptual modelini ishlab chiqish;
- oliy ta'lim tizimini isloh qilish strategiyasini ishlab chiqish.

Oliy ta'lim muassasasi (OTM) yuridik shaxs maqomiga ega bo'lib, o'z faoliyatini kasbiy ta'lim dasturlari asosida amalga oshiradi. Oliy talim xizmatlari ko'rsatilishi jarayonida oliy ta'lim muassasalarining filiallari, fakultetlari, kafedralari, ilmiy-tadqiqot bo'linmalari va oliy ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydigan boshqa bo'linmalarning faoliyatlari samarali birlashtiriladi. Oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar asosan davlat, nodavlat universitet va institutlar tomonidan amalga oshiriladi. Oliy ta'limdagi muassasalar ko'plab murakkab ierarxik tuzilishiga ega. Unda talabalarni tayyorlash, yoshlarni muayyan faoliyat turiga, jumladan, ijtimoiy mehnat taqsimoti tizimiga tayyorlaydigan o'rta va oliy ta'limni rivojlantirish muhim o'rinni egallaydi. Bularga har xil turdagi oliy o'quv yurtlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning turli shakllari, individual, jamoaviy tayyorgarlik va boshqalar kiradi. Ikkinchi oliy ma'lumot, oliy ma'lumotli shaxslarni aspiranturada tayyorlash asosida falsafa doktorlari (PhD) va doktorlik (DSc) dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilish tizimlarini tashkil etishdan iborat.

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida va aholining barqaror turmush farovonligini ta'minlashda oliy ta'lim qamrovini hamda samaradorligini oshirish dolzarb masala hisoblanadi. Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, bizgacha bo'lgan ko'plab bir qator tadqiqotlar "xarajat"ni hisoblashga, ya'ni oliy ta'limning shaxs va umuman davlat rivojlanishidagi ishtirokining miqdoriy yoki pul ifodasiga bag'ishlangan. Ta'lim oluvchilarning

mikrodarajali yoki individual foydasiga kelsak, har bir qo'shimcha akademik ta'lim yili individual ta'lim daromadini 10% ga oshiradi.

Bundan tashqari, 2009 yildan 2019 yilgacha global ta'lim xarajatlari har yili real ko'rinishda 2,6 foizga o'sdi⁶. Bu o'sish sur'ati global iqtisodiy o'sish sur'atlaridan sekinroq va ikki xil tendensiyani yashiradi. Jahon ta'lim xarajatlarining taxminan uchdan ikki qismini tashkil etuvchi yuqori daromadli mamlakatlar faqatgina 5 ta global ta'lim xarajatlari hukumatlar, uy xo'jaliklari va donorlar tomonidan ta'lim xizmatlariga sarflangan xarajatlarni bildiradi va YuNESKO Statistika Instituti ta'riflariga amal qiladi.

Olib borilgan tahlil natijalariga ko'ra, so'ngi 10 yil davomida ta'lim xarajatlarini biroz oshirdi. Ta'limning "qimmatroq" xarajatlari tendensiyasi daromad darajasi past bo'lgan mamlakatlarda ko'proq seziladi - iqtisodiy daromadning 10,9%, o'rtacha darajasi - 10,7%, yuqori darajasi - 7,4%. Ta'limning makro darajada ta'sirini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, eng rivojlangan mamlakatlarda bilim va ta'lim darajasining oshishi hisobiga milliy daromadning 60% gacha o'sishi kuzatilmoqda. Ya'ni, jismoniy shaxslar uchun ta'lim bandlik, daromad, sog'liq va qashshoqlikni kamaytirishga yordam beradi. Jamiyat uchun bu uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, innovatsiyalarni rag'batlantiradi, institutlarni mustahkamlaydi va ijtimoiy hamjihatlikni rag'batlantiradi⁷.

AQShda kollej bitiruvchilari ulushining bir foizga oshishi mehnat unumdorligining oshishiga va ishlab chiqarishning 0,5-0,6 foiz punktga oshishiga yordam beradi⁸. Oliy ta'limda inson kapitalining har yili 1 foizga o'sishi aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atini 5,9 foizga oshirishni ta'minlashi qayd etilgan⁹. Bouhajeb Mabrouka va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotda ta'kidlaganidek, ilmiy-tadqiqot xarajatlari, patent talabnomalari soni va oliy ta'lim xarajatlarining 1% ga o'sishi, kishi boshiga yalpi ichki mahsulotning o'sishi uzoq muddatda mos ravishda 0,854%, 2,862% va 0,075% ga oshadi¹⁰.

Ushbu tadqiqot natijalaridan ko'rinadiki, aholining umumiy ta'lim darajasini oshirish ko'rinishidagi ijtimoiy samaradan tashqari, ta'lim va oliy ta'lim davlat taraqqiyotiga yalpi ichki mahsulotning o'sishi shaklida ham iqtisodiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim iqtisodiy faoliyatning alohida turi ekanligini hisobga olsak, uning samaradorligini boshqa tarmoqlar bilan solishtirganda baholash va ta'lim jarayonini tashkil etishda jalb qilingan resurslarning optimal nisbati alohida ahamiyat kasb etadi.


⁶ EDUCATION FINANCE WATCH 2021. <https://thedocs.worldbank.org/en/doc/507681613998942297-0090022021/original/EFWReport2021219.pdf>

⁷ THE WORLD BANK <https://www.worldbank.org/en/topic/education/overview>

⁸ Enrico Moretti Estimating the social return to higher education: evidence from longitudinal and repeated cross-sectional data. *Journal of Econometrics* 121 (2004) 175 – 212. <https://eml.berkeley.edu/~moretti/socret.pdf>

⁹ The Returns to Education: Macroeconomics *Journal of Economic Surveys Volume 17, Issue 2* p. 157-200. <https://doi.org/10.1111/1467-6419.00192>


¹⁰ Bouhajeb Mabrouka, Mefteh Haifa, Ben Ammar Rania Higher education and economic growth: The importance of innovation. *Journal Atlantic Review of Economics (ARoEc) ISSN:] 2174-3835 Volume: 2018 Issue: 2.* <http://hdl.handle.net/10419/213791>



1-rasm. Oliy ma'lumotlilar, %¹¹

1-rasmda Oliy ma'lumotlilar to'g'risida ma'lumotlar taqdim etilgan bo'lib, tadqiqotchilar tarkibida oliy ma'lumotlilar xissasi 2010-2015 yillarda 1,9 ming kishiga ortgan bo'lsa, 2015-2020 yillarda 6,2 ming kishiga kamaygan, biroq 2021-yilda 4,1 ming kishiga, 2022-yilda esa 2020-yilga nisbatan 8,6 ming kishiga kishiga ortganligini ko'rishimiz mumkin.

Texniklar tarkibida esa 2010-yilda 0,3 %, 2015-2020 yillarda 0,5 %, 2021-yilda 0,6%, 2022-yilda 0,7 foizini oliy ma'lumotli texniklardan iborat bo'lgan. Yordamchi personal tarkibida 2010-yilda 0,7 %, 2015-yilda 0,6 %, 2020-yilda 0,8%, 2021-2022 yillarda 0,6 % ni tashkil etgan, ammo boshqa personal tarkibida 2010 yilda 0,4 %, 2015 yilda 0,5 % 2020 yilda 0,6 %, ya'ni 0,2 foizga ortgan bo'lsada, 2021-2022 yillarda yana 0,4 foizga tushganligini ko'rishimiz mumkin. Vaholanki 2022-yilda jami tadqiqotchilar tarkibida oliy ma'lumotlilar xissasi 2010-yilga nisbatan 4,6 % ga ortgan.



2-rasm. Faoliyat sektori bo'yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorklik ishlarini bajargan muassasalar soni¹²

2-rasmda faoliyat sektori bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullangan muassasalar soni bo'yicha ma'lumotlar taqdim etilgan. Bunda eng ko'paygan vaqti 2018-yilda kuzatilgan bo'lib, 668 taga yetgan. Eng pasaygan vaqti 2019-yilda kuzatilgan bo'lib, 304 tani tashkil etgan.

¹¹ “Ўзбекистон рақамларда” Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги статистика агентлиги маълумотлари асосида

¹² “Ўзбекистонда илми-фан ва инновацион фаолият” Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги статистика агентлиги маълумотлари асосида

Bunday muassasalar soni davlat sektori, tadbirkorlik sektori, oliy ta'lim sektori va xususiy sektorda faoliyat ko'rsatishgan. Eng yuqori ko'rsatkich 2018-yilda kuzatilgan bo'lib 289 tani tashkil etgan, ular asosan davlat sektorida kuzatilgan. Keyingi xolatda yuqori ko'rsatkich tadbirkorlik sektorida 2018-yilda kuzatilib, 220 taga yetgan, oliy ta'lim sektorida esa 2018-yilda 146 taga yetgan.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy tadqiqot va tajriba ishlanmalari bilan shug'ullangan xodimlarning ilmiy tadqiqot ishlari oliy ta'lim sektorida, shu bilan birga xususiy sektorda ham yuqori bo'lishi kerak. Bugungi kunda qayta tayyorlash va malaka oshirish bo'yicha turli noan'anaviy muassasalar, markazlar va kurslar faoliyati ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq. Bu oliy ta'lim muassasalarning o'z imijini topish, saqlab qolish va yaxshilash, boshqacha aytganda, imkon qadar raqobatbardosh bo'lish imkoniyatini beradi.

References:

1. Алмакучуков К.М. Технологии управления маркетингом в вузе // Высшее образование Кыргызской Республики. – 2008. – 2/12. – с.44-50
2. Ахунова Г. Ўзбекистонда таълим хизматлари маркетинги муаммолари: Монография. – Тошкент. – 2005. – 244 б.
3. Назарова Д. Таълим хизматлари маркетингида ахборотни бошқариш // Жамият ва бошқарув. – 2010. – 3. – 65-67-б
4. Enrico Moretti Estimating the social return to higher education: evidence from longitudinal and repeated cross-sectional data. Journal of Econometrics 121 (2004) 175 – 212. <https://eml.berkeley.edu/~moretti/socret.pdf>
5. The Returns to Education: Macroeconomics [Journal of Economic Surveys Volume 17, Issue 2](#) p. 157-200. <https://doi.org/10.1111/1467-6419.00192>